


### KASHTALARDA BOBOM SIYMOSI

Bu yilgi navoiyxonlik kechamizda 8-«A» sinfida o'qiydigan Rustam Valijonov Navoiy siymosini yaratdi. «Millatning buyuklarini yod etib», deb nomlangan tadbirda men boshlovchilik qildim. G'azalxonlikni-ku qo'yavering, hatto tikkan kashtalarida ham bobomizning siymosini aks ettirgan qizlarimizdan, bu ajoyib kechani tashkillashtirgan ustozlarimiz Mavjuda opa Hayitova, Aqida opa Toshmuhammedovalardan maktabimiz rahbari S.Oripova mamnun bo'ldilar.

Laziza FATXULLAYEVA,  
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi  
123-maktabning 8-«A» sinf  
o'quvchisi



### ENG SHE'RXON O'QUVCHI

Namangan viloyati, Chust tumanidagi 7-maktabda eng she'rxon o'quvchilar bellashdilar. Tanlovda ular she'rni ifodali o'qishdan tashqari, bir mavzuqa she'r yozishlari va uni tahlil qilib berishlari kerak edi. Bu shartlarni uddalagan D. Qo'chqorova 1-o'rinni, Z.Toychiyeva 2- va Q.Abdusalomova 3-o'rinni egallashdi. Demak, ona tili o'qituvchisi M. Sadriddinova o'quvchilar qalbida adabiyotga ana shunday tarzda mehr uyg'otayotgan ekanlar.

Kamola NOSIROVA,  
Namangan viloyati

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Tong

YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

ISSN – 2010-6092

2009-yil  
23-fevral  
N:8  
(66705)

## NAVOIY SO'Z MULKINING DAHOSI

Shahrimiz va tumanimizda ham mamlakatimizda bo'lgani kabi Alisher Navoiy tavalludining 568 yilligi keng nishonlandi. Shahardagi Alisher Navoiy nomi bilan ataladigan maktab o'qituvchi va o'quvchilari ishtirokida Hazrat Navoiy tug'ilgan kuni munosabati bilan katta tantanali kecha bo'lib o'tdi.

Unga respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi raisining birinchi o'rinbosari, navoiyshunos olim, filologiya fanlari nomzodi Sultonmurod Olimov, O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toirov, respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi bo'lim mudiri Ziyoda G'afforova, O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar nashri «Tong yulduzi» gazetasining Bosh muharriri To'lqin Hayit, falsafa fanlari nomzodi, dotsent Solijon Boymatov, respublika teleradio-kompaniyasi Axborot muharririyati Bosh muharriri o'rinbosari Ahmadjon Buzrukovlar tashrif buyurishdi.

– Buyuk mutafakkir, shoir Alisher Navoiy yaratgan durdona asarlar, shoh baytlar necha asrlarki, nainki, turkiy-u forsiy tilda so'zlashuvchi xalqlar, balki jahondagi ko'plab she'riyat, adabiyot ixlosmandlarining e'tibor-u e'zozida, – deya so'z boshladi Sultonmurod Olimov. – Zero, Navoiy bobomizning har misra, har baytida insoniylik, ezgulik, bag'rikenglik, saxovatpeshalik kabi fazilatlar haqida so'z yuritiladi, bunday sifatlar bilan insonlar ulug'lanadi, ulardan o'rnak, ibrat olishga da'vat etadi.

– Navoiy haqida qancha gapirsak oz, – deya ta'kidladi O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir. – Bugun butun dunyo ahli Alisher Navoiyning tavallud kunini keng nishonlamoqda. Yaponiya xalqi bizdan oldin Navoiyga hurmat bajo keltirib, Tokiodagi haykali poyiga gulchambarlar qo'ydi. Chunki Yaponiyada bizga nisbatan tong barvaqt dunyo yuzini ko'radi. Qolaversa, 1941-yil ayni qirg'inbarot urush kunlarida ham leningradliklar Navoiyning 500 yilligini keng nishonlaganlar. Bugun o'zbek xalqining ziyolilari erta tongdan Hazrat Navoiy nomi bilan atalgan milliy boqqa to'planishib, bobomiz ruhiga Qur'on tilovat qilib, haykali poyiga gullardan poyonoz yasadilar.

Ahmadjon KAMOLOV,  
Toshkent viloyati, Yangiyo'l shahri



# SARDOR

## BO'LISHNI XOHLAYSIZMI?

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi tashabbusi bilan «Sardorlar maktabi» tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda respublika bo'yicha o'z tinglovchilari bor.

Liderlar! «Sardorlar yoki Lider bo'lishning siri» nomli yangi ruknda faol ishtirok eting. Ushbu sahifa sizniki!

Bu haqdagi maqolani 4-betda o'qing.

Bu galgi ertagimiz Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidagi Tovoqsoy qo'rg'onida yashovchi bolalar haqida. Bu bolakaylar ulkan tog'lar bag'ridagi 12-maktabda o'qishadi. Biri-biridan aqlli o'quvchilar «Kelib ketma, bilib ket» shioriga amal qilisharkan. Buni hatto maktabning katta darvozasi tepasiga yozib qo'yishibdi.



# KELIB KETMA, BILIB KET!

## BOLTABOY ODOBLI BOLAMI?

Dars allaqachon boshlanganligi sababli, maktabda sukunat hukmron. Sekingina 1-«A» sinfi deb yozib qo'yilgan eshikni ochib mo'raladik.

Jajjigina Nigina uyga berilgan vazifa – «Boltaboy odobli bolami?» hikoyasini so'zlab berayotgan ekan. Keyin ustoz


Turg'unoy opa To'rayeva unga «5» baho qo'yib berdilar. Qo'shimcha savollarga esa Shahzod Abdurashidov, Adolat Asilboyeva hamda Komila Tojiboyevalar qoyillatib javob berishdi. Shahzodning aytishicha, Boltaboy odobli bola bo'lib, doimo kattalarga ko'maklasharkan. Biz bularni odobnoma darsida bo'lib, bilib oldik.

## «JIM, SINFDAN ONAM BORLAR!»

– dedi pichirlab Akromjon partadoshiga. Qarang, 6-«A» sinf o'quvchilarining ota-onalari tez-tez maktabga kelib, darslarni kuzatib borisharkan. Ularning kuzatishicha, fizika o'qituvchisi Gulchehra opa Ermatova darsni qoyillatadi. Yana-chi, bu sinfning qizlari shoira-yu, o'g'il bolalari sportchi ekanlar. Masalan, Zarnigor Mirhamidova, Marhabo Shayxzodayeva, Rushana Hamidovalar tanaffusda o'tirib olib, she'r yozishni yoqtiradilar.

*Bilim – hunar egasi,  
Bir daraxtning mevasi.  
Biz quvnoq o'quvchilar,  
Yurtimizning ertasi.*

Barakalla, Zarnigor, she'ring yaxshi chiqibdi! Sinfdoxlaring Davron Rixsiboyev va Mashhar Abdurasulovlarning boks bo'yicha tumanda o'tkazilgan musobaqalarda 1-o'rinni egallaganliklarini esa sinfingiz yutug'i desa bo'ladi.



## MAKTABIMNING DIREKTORIMAN

Shunaqasi ham bo'larkan-da!.. Mana, Muqaddas opa shu maktabda o'qib, keyin yetakchi bo'lib ishlabdilar. Qarabsizki, ular bugungi kunda maktabga rahbarlik qilmoqdalar. Direktorga o'quv ishlarida Gulnora opa Po'latova, ma'naviy ishlarda esa Muyassar opa Mirzayeva ko'maklashar ekanlar. Aslida maktabning 1109 nafar o'quvchisini boshqarish ular uchun uncha qiyin emas. Chunki bu bolalarning o'zlari tirishqoq va tashabbuskor bo'lib, hatto maktabda quyon boqish niyatlari ham bor. 40 ta archa va 180 ta gul ko'chatlarini-ku

bahor kelmasidanoq maktab hovlisiga ekib qo'yishibdi. Ular hozirdanoq «Yilning eng yaxshi maktabi» nomini olishga harakatni boshlab yuborishdi.

Bu maktabning «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili»da yanayam obod bo'lishiga, o'quvchilar orzu qilishganidek, bu yerlarda yana ko'plab o'quv markazlari, sport inshootlari barpo etilishiga ishonamiz.



## Alpomishning enasi

Maston xolaning do'ppidek bo'lsa-da, shahar markazida hovlisi bor edi. Qirq yillik qo'shnilar bilan tillashib, to'rtta tovug'i-yu choli Hasan otaga qarab umr kechirib yurgan edi. Bir kuni mahallaning kattasi kirib aytdi, bu yerdan katta yo'l o'tarmish. Shunga yigirma chog'lik xonadon buzilarmish. Chol-u kampir ne derdi? Ko'pchilikka kelgan to'y.

Hash-pash deguncha, ularning hovlisi tep-teki bo'ldi. Chol kampirga ikki xonalik chiroyli uy berishdi. Maston xola qishda ko'mir, yozda yog'och yoqib ovqat pishirishdan, hovli supurib, qor kurashdan qutildi-yu... biroq, biror oydan keyin zerika boshladi. Qiladigan ishing bo'lmasa ham qiyin ekan. Kampir o'ylab-o'ylab, bozorga chiqmoqchi bo'libdi. Choli eski hovlisi buzilganida har xil temir-tersaklardan yig'ib qo'ygan edi.



(Mitti hikoya)

Maston xola kichkina aravachaga o'sha temirlarni ortdi-yu, bozorga yo'rg'aladi. Avvalo, ermak, bozorchi odamlarni ko'rib, hovuri bosildi, qolaversa, bir so'm bo'lsa-da, harna, nafaqaga suyanchiq.

Maston xolaga yoyma bozorga kiraverishdan joy tegdi. Oldidagi suvqog'ozga buyumlarni yoyib qo'ydi. Ular orasida bir-bir yarim quloch keladigan armaturagacha bor.

Shu payt Maston xolaning oldiga bir polvon yigit keldi.

– Xola, mana bu simingizga qancha so'raysiz? – dedi bir metr keladigan armaturani qo'lga olib. Bu xolaga erish tuyuldi

– Yaxshilab qara, bolam. Bu sim emas, temir tayoqcha. Armatura deydi. O'qlovday keladigan temirni sim deysana, bolam...

– Biz uchun sim-da bu, ena, – dedi kulib polvon yigit. U bitta armaturani zuvaladay qilib egib o'ynay boshladi. Kampir norozi bo'ldi.

– Ko'rdik, bilagingda kuching bor ekan, – dedi xola, – ammo bu savilni oladigan bo'lsang, mayishtirgin-da,

bolam. Olmasang, molimni buzib nima qilasan?

Kampir yigitning qo'lidan temir tayoqchani oldi, yengil harakat bilan uni to'g'riladi va oldidagi suvqog'ozga tashladi. Buni ko'rib, polvonning ko'zi chiqib ketdi.

– Iye, momoy, siz alpomishning enasi ekansiz, tavba qildik, – dedi. Yigit hamma temir-tersakni yig'ishtirib oldi. Kampirning aytganidan ikki hissa ko'p pul to'ladi-yu, jo'nab qoldi.


Sa'dulla SIYOYEV

## ULUG'BEK JILMAYDI

### Hikoyat

Qadimda Samarqandda bir musofir tijoratchi bo'lgan ekan. U ancha yil burun Sayxun bo'yidagi Yassi shahridan kelgan, savdosi yurishgach, Samarqandda muqim yashab qolgan edi. Oradan shuncha yil kechgan bo'lsa-da, musofir bu azim shaharga singib ketolmadi. Mahalliy korchalonlar, xususan, tijorat ahli unga yot ko'z ila boqar, imkon tug'ildi deguncha, kamsitishga urinishardi. Bunday malomatlar alal-oqibat musofirning xo'riginu keltirdi. U o'z yurtiga qaytmoqchi bo'ldi. O'sha davr udimiga ko'ra, nomdor tujjorlar faqat hukmdorning ijozati bilangina ko'chib ketish

## 1 MAKTABDA 36 CHEMPION



Ha, ha, 7-maktab haqiqatan ham chempionlar maktabi! Axir bu maktabning o'quvchilari hatto Xalqaro musobaqalarda g'olib bo'lishgan. Aytishlaricha, bu maskandan 36 nafar chempion chiqishining sababi, jismoniy tarbiya o'qituvchisi 1972-yil - maktab ochilganidan beri o'quvchilarga murabbiylik qilib kelayotgan Ali aka Azizovning jonkuyarliklari ekan.

## YOSH RAHBARNING ORZUSI

Eng yosh o'qituvchi, aniqrog'i, maktab rahbariniku, o'quvchilar hali sport zaliga, raqs to'garagi xonasiga yetaklashgani-yetaklashgan. Afzal aka Abdualiyev ham o'quvchilarning fikrlarini tinglashdan, ular bilan do'stlashishdan charchamas ekan. Har oyning oxirida sog'lomlashtirish kunini o'tkazishga ham direktor bosh-qosh! Uning eng katta orzusi sport zalini zamonaviy anjomlar bilan boyitish, maktabni esa tumandagi eng namunali maktabga aylantirishdir. Axir o'quvchilar ham bunga munosiblar-da! Ayniqsa, maktabning raqqosa qizlarini aytmaysizmi?

## «GLORIYA»NING QIZLARI

«Gloriya» raqs dastasi qizlariga qoyil qolmay bo'ladimi? Axir ular naq Mustaqillik maydonidagi bayram tantanalarida raqs ijro etishgan-ku! Dastani tumanda hamma biladi. Tumandagina emas, ular hatto Buxoro shahrida bo'lib, shaharning 2500 yillik to'yida ham ishtirok etishgan. To'garak rahbarining shogirdlaridan ko'ngli to'q. Chunki to'garak a'zolari Zarina va Gulshan Xudoyberganovalar rahbarlari Natalya Georgiyevna o'rgatgan nozik harakatlarni juda o'xshatishadi-da! Balli, qizlarjon! Raqslaringiz dunyoni kezsini!

## YANA UCHRASHAMIZ...



Bu maktab rahbarining orzulari tezda amalga oshadiganga o'xshaydi. Chunki tuman xalq ta'limi bo'limining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mutaxassisi Feruza opa Quدراتova

«Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili»da tumandagi 14 ta maktabning ta'mirlanishi rejalashtirilganini aytib o'tdilar. Buni eshitib, xursand bo'ldik. Negaki, bu ro'yxatda 7-maktab ham bor edi. Orzulari amalga oshganda esa ular bilan yana uchrashamiz!

Gulyuz ORIFJONOVA, Sayyora JO'RAYEVA,  
Toshkent - Bo'stonliq

mumkin edi. Ana shu tomonga rioya qilib, savdogar bir kuni sulton Ulug'bekning oldiga bordi. O'zini tanishtirdi, so'ng, arzi hol qildi:

- Shohim, siz muhtaram zoti sharifning soyai davlatlarida salkam yigirma yil umurguzaronlik qildik. Birimiz ikki bo'ldi, mingimiz tuman bo'ldi. To umrimiz zavoligacha Samarqandi zeboda kechgan kunlarimizga shukrona aytib o'tgaymiz. Endi bu ojiz qulingizga ijozat bersangiz. Bir siqim tuprog'imiz chuqqan elimizga buyursa. Omonatini padari buzrukvor ila volidai mehribon dafn etilgan Yassida topshirsak...

Ulug'bek o'tkir aqli bilan bu tujjorning nimadandir qattiq noroziligini, ammo aytolmay turganini sezdi.

- Sabr aylang, ey musofir, - dedi Mirzo Ulug'bek, - o'zlariga bir haftadan so'g'in ruxsati oliy bergaymiz.

Ertasiga Mirzo Ulug'bek bomdod nomozini ado etdi-yu, qabatiga ulamoyu umaroni olib, yo'lga tushdi. U yassilik savdogarning do'konini ko'zlab borardi. Ulug'bek o'z odatiga ko'ra, obdon bozor aylandi, rastalarni birma-bir tomosha qildi. Narx-navoni

surishtirdi. Oldida yo'rg'alab yurgan shahar dorug'asi-yu muxtasibga yo'riqnomalar berdi. Va sayohatning oxirida o'sha musofirning do'koniga bordi. Tujjor bilan eski tanishlardek so'rashdi, savdo sotig'ini surishtirdi, neki mushkulot tug'alsa, mana, dorug'a sizga ko'mak bergay, deya hokimga ishora qildi. So'ng, otiga minib, darrov jo'nadi. Bozorchilar hozirgina kimsan - sulton Ulug'bekning qo'lini olgan musofir tujjorni o'rab olib, uni muborakbod eta boshladilar.

Oradan hafta o'tdi, o'n kun, yigirma kun. Lekin yurtiga ketmoqchi bo'lib ruxsat so'ragan savdogardan darak yo'q edi. Nihoyat, Ulug'bekning amri bilan uni saroyga olib keldilar.

- Biz sizga ijozat bermoqqa azm qildik, - dedi Ulug'bek, - istagan kuni tuqqan makoningizga ketishingiz mumkin.

Tujjor ikki bukilib, ta'zim qildi:

- Davlatpanoh, agar ruxsati oliy bo'lsa, omonatimizni o'zlarining saltanatlari ostida mana shu jannatmakon Samarqandda topshirsak...

Mirzo Ulug'bek kulib qo'ydi.

Sayfi SODIQ



## TEST SAVOLLARI

1. Mumtoz adabiyotda topishmoq qanday nomlanadi?

- A) churiya;  
B) chiston;  
D) muammo.

2. Baxshilar dostonni qanday kuylaydilar?

- A) do'mbira chertib;  
B) doira bilan;  
D) hech qanday musiqa asbobisiz.



3. Navoiy g'azallari qaysi asarda jamlangan?

- A) «Muhokamatul-lug'atayn»da;  
B) «Xazoyinul-maoniyy»da;  
D) «Mezonul-avzon»da.

4. «Boburnoma» qanday asar?

- A) Nazmiy asar;  
B) Memuar asar;  
D) Pandnoma asar.

5. Uvaysiyning asl ismi?

- A) Vaysiy;  
B) Jahon otin;  
D) Anbar otin.

6. Bobur haqida roman yaratgan O'zbekiston Xalq yozuvchisi kim?

- A) Xayriddin Sultonov;  
B) Pirimqul Qodirov;  
D) Odil Yoqubov.

7. Qaysi shoira uch taxallus bilan g'azallar yozgan?

- A) Zebunniso;  
B) Uvaysiy;  
D) Nodira.

8. O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'lgan adibni toping?

- A) Erkin Vohidov;  
B) Abdulla Oripov;  
D) Said Ahmad.


9. Ijodini o'qituvchilikdan va feleton yozishdan boshlagan yozuvchi kim?

- A) Tursunboy Adashboyev;  
B) Xudoyberdi To'xtaboyev;  
D) Anvar Obidjon.

10. O'zbek adabiyotiga afandi obrazi qachondan boshlab kirib kelgan?

- A) asosan XIX asrdan boshlab;  
B) XV asrdan;  
D) latifalardan boshlab XIII asrdan.





«Yangi avlod – 2008» bolalar ijodiyoti festivali g'olibi

## HAYOTNING HAR ONI G'ANIMAT



Bu tengdoshingiz Komilaxonning shiori. U bo'sh vaqtlarini hamisha unumli o'tkazishga harakat qiladi. Matematika, fizika fanlarini puxta o'rganmoqda.

Komilaxon Maqsudxo'jayeva Mirzo Ulug'bek tumanidagi 50-maktabning 6-«B» sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Shu bilan birga, Hamza nomidagi Respublika kollejining 2-sinfida tahsil oladi. Ilk saboqni musiqa ustози Zakirova Angelina Yuryevnadan olgan bo'lsa, hozirda Gulnora Umarovadan qo'shiq aytish sirlarini, sahna madaniyatini o'rganmoqda.

Buvijonlari – Lyudmila Nosirovna hamda Ra'no Xayrullayevnalarning yolg'iz qiz nabiralari bo'lsa-da, Komilaga nisbatan doimo talabchanlar. Shu sababdanmi, u hamisha puxta bilim olishga intiladi.

«Yangi avlod – 2008» bolalar ijodiyoti festivalida Komilaxon «Arlekin» qo'shig'ini maromiga yetkazib kuyladi va g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Moskva shahrida o'tkazilgan Xalqaro bolalar va o'smirlar ijodiy festivalida ishtirok etib, birinchi darajali diplom bilan taqdirlandi.

Shuningdek, O'zbekistondagi Ukraina madaniyat markazi hayotidagi faol ishtiroki uchun «Maqtov yorlig'i» bilan taqdirlandi.

Kuni kecha esa O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining «Tasanno» ko'rik-tanlovida, xalqaro tanlovlarda erishgan ulkan muvaffaqiyatlari uchun Sertifikat sohibasi bo'ldi.

Bu kabi yutuqlar uning izlanishlari, intilishlari mevasi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Komilaxonga, o'z kuy va qo'shiqlarining bilan dillarni maftun etaver, degimiz keladi.

H  
A  
Y  
O  
T  
  
M  
A  
K  
T  
A  
B  
I

Tahririyatga ikki o'quvchi kirib keldi. Salom- alikdan so'ng, o'zlarini tanishtirdilar. Ular «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati qoshidagi «Sardorlar maktabi» tinglovchilari ekan. Gazetamizda sardorlar sahifasini ochishimizni, unga respublikamizdagi maktablar, sinflardagi sardorlarni jalb etishimizni iltimos qilishdi. Biz ham ularning takliflarini inobatga oldik va «Sardorlar yoki lider bo'lishning siri» nomli yangi ruku tashkilladik.

Lider bo'lishni kim ham xohlamaydi, deysiz? Uning siri nimada? Sardorlar! Faoliyatingiz davomida qanday yaxshi ishlarni amalga oshirdingiz? Takliflaringiz, mulohazalaringiz bilan gazeta orqali o'rtoqlashing, o'rganing, o'rgating!

Ushbu sahifa SIZNIKI!

«Sardorlar maktabi» O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Nizomi, «Bola huquqlari to'g'risida»gi Xalqaro Konvensiya hamda ushbu Nizomga muvofiq faoliyatini amalga oshiradi.

O'zbekiston «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi qoshidagi «Sardorlar maktabi»ning Nizomidan olindi.

2007-yil «Kamolot» YOIH MK tashabbusi bilan «Sardorlar maktabi» tashkil etildi. Maktabga kiruvchilar bilimdon bo'lishlari bilan birga, ingliz va rus tillarini ham bilishlari kerak bo'ladi.

«Sardorlar maktabi»ga qabul qilingan yoshlar ruhshunoslar, olimlar, yozuvchi-shoirilar bilan uchrashuvlar o'tkazadilar. Maktabning Respublika bosh sardori Sardor Mahkamov seminarlarni qiziqarli mavzularda olib boradi. Murabbiylar ham o'zlarining bilim va tajribalarini, iste'dod va mahoratlarini ayamaydilar. Ayniqsa, «Boshqaruv turlari», «Inson va jamiyat», «Who is leader?», «Etiket cheloveka» kabi o'zbek, rus va ingliz tillaridagi qiziqarli mavzular o'quvchilarni befarq qoldirmayapti. Bugungi kunda sardorlar maktabi bo'limlarining Respublika bo'yicha tinglovchilari bor.

SARDORLAR yoki LIDER bo'lishning SIRI

## OLTIN DIPLOM KIMNIKI?

Uch oylik o'qishni tugatgan tinglovchi oltin, kumush va bronza diplomlari sohibi bo'lishi mumkin. Buning uchun esa sinovlardan muvaffaqiyatli o'tishi lozim. Ya'ni, 250 dan yuqori ball to'plagan tinglovchi oltin, 200-250 ballgacha esa kumush, 150-200 ball olgan tinglovchi bronza diplomini qabul qiladi.

Biz oltin diplom olish uchun ko'proq o'qiyamiz, izlanamiz, intilamiz. Qani,

## TINGLOVCHIDAN MURABBIYLIKKA

navbatdagi oltin diplom kimlarga nasib etarkin?

Oltin diplom olgan o'quvchi «Sardorlar maktabi»ning «Murabbiylar maktabi»da o'qishi mumkin. Bu maktab «Sardorlar maktabi» a'zolarini murabbiylik qobiliyatlarini yana-da oshiradi va keyingi avlod tinglovchilariga murabbiylik qiladi.



Javohir KOMILOV,

Shayxontohur tumanidagi 59-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi



Nuriddin ANVAROV, Sobir Rahimov tumanidagi 22-maktabning 8-«V» sinf o'quvchisi:

– Maktabdagi seminarlar uch tilda o'tiladi. Bu esa til o'rganishimizda juda yaxshi imkoniyat. O'ylaymanki, har bir tinglovchi til o'rganib, o'z bilimi, iqtidorini Vatanimiz ravnaqi yo'lida sarflaydi.

## SO'Z SARDORLARGA!

Mahmud AHMEDOV, poytaxtdagi 310-maktab o'quvchisi:

– «Sardorlar maktabi» saboqlari nafaqat yoshlarga bilim berish, balki loyihalar o'tkazish, unda faol ishtirok etish bilan ham qadrlidir. Yaqinda Toshkent shahar bo'limi tomonidan tabiatni asrashga qaratilgan «Qush ini» loyihasi ishlab chiqildi.

Loyiha nazariy va amaliy qismdan iborat. Nazariy qismda o'quvchilar qushlar haqida, ularning O'zbekistonda qishlashi, tarixi bilan tanishadilar. Amaliy qismda esa o'quvchilar o'zlarini yasagan qush inlarini daraxtlarga ilib chiqadilar. Ushbu loyihani biz o'quvchilar katta qiziqish bilan amalga oshirdik.



Sahifani Feruza SOYIBJON qizi tayyorladi

Men Sabina Asqarovaman. Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 64-o'rta maktabning 1-«A» sinfidagi a'lo baholarga o'qiyman. Rus va ingliz tillarida yaxshi gaplasha olaman. Yana, dugonam Maryamxon bilan maktabimizdagi raqs to'garigiga qatnaymiz.

Bizning katta tanaffusimiz juda qiziqarli o'tadi. Aniqrog'i, bir-birimizni «imtihon»dan o'tkazamiz. Qanday qilib, deysizmi? Juda oddiy: ustozimiz Muborak opa Yusupovadan darsda olgan saboqlarimizni sinab ko'ramiz. Shu tariqa bilimlarimizni mustahkamlaymiz, topqirlikni, tez fikrlashni o'rganamiz. Bunday mashg'ulotlarimizga boshchilik qiladigan ustozimiz Muborak opani juda yaxshi ko'ramiz. Ularni sizga ham tanishtirgim keldi, shuning uchun birga tushgan suratimizni yuboryapman.


Siz-chi, bolajonlar, katta tanaffusni qanday o'tkazasiz?

Sabina ASQAROVA



## UKAMGA ATALGAN RASM

Hademay ko'rkam sepini yoyib, yurtimizga ko'klam kirib keladi. Bayramlarga boy bo'lgan bu faslni hamma, ayniqsa, ukajonim sabrsizlik bilan kutadi. Boisi, bu faslda uning tug'ilgan kuni bo'ladi. Ukajonimni gazeta orqali tug'ilgan kuni bilan tabriklashni istardim. Unga sovg'a tariqasida mana shu rasmimni chizdim. Chunki uning tabiat shaydosi ekanligini yaxshi bilaman.



Sarvinoz OMONOVA,  
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi  
13-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchisi

## XANDALAR



**Shifokor:**

– Bolakay, qo'lingga anchadan buyon sovun tegmaganga o'xshaydi-ya.

**Bola:**

– Voy, kechagina do'kondan oyimga sovun olib kelib berdim-ku!..

\*\*\*

– Oyijon, meni daladan topib olganmisiz?

– Yo'q, o'g'lim.

– Nega unda akam: «Sen pishmagan qovoqsan», deyдилar.



## TANAFFUSDAGI HANGOMA

Abbos ismli sinfdoshimiz bor. O'zi yomon bola emas-u, juda sho'x-da. Shuning uchun ham o'qituvchilardan juda ko'p dakki eshitadi.

Yaqinda matematika darsida u tashqariga chiqib kelish uchun ruxsat so'radi. Ustoz faqat besh daqiqaga ruxsat berdilar. O'yinqarog' Abbas tashqariga chiqib, pol yuvayotgan farrosh xolaning chelakdagi suviga moy qo'shib kelibdi.


–Tanaffusda zo'r tomosha bo'ladi-da, – deya maqtandi qilgan ishidan mumnun bo'lib...

Birozdan so'ng katta tanaffusga qo'ng'iroq chalindi. Qilgan shumligini unutib qo'ydi chog'i, Abbas birinchilardan bo'lib tashqariga otildi. Yo'lakka chiqdi-yu, oyog'i sirpanib, yiqilib tushdi.

«Birovga choh qazisang, o'zing tushasan», deb bejiz aytilmagan-da, deya rosa kulishdi bolalar.

Akobir NOSIRXO'JAYEV,

Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 102-maktabning 8-sinf o'quvchisi




## QORAVOV VA BILMASVOY HANGOMASI

O'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini oladigan Aziz ismli bir sinfdoshimiz bor. Tunov kuni sinfga kirdi-yu: «Feruz, qalaysan, Qoravoy?» deya bir qizning boshidan qalpog'ini olib qocha boshladi. Lekin u Feruza emas, boshqa qiz ekanligini payqamay qoldi. Haligi qiz esa Azizning ortidan biroz qarab turdi-da: «Hoy, bola, qalpog'imni ber!» deya ortidan quva ketdi...

Darsga qo'ng'iroq chalinib, sinfga kirdik. Bo'lgan voqeadan xabar topgan Feruza: «Qalaysan, Bilmasvoy?» deya Azizning boshiga qalpog'i bilan ohistagina urib qo'ydi. Sinfimizda quvnoq kulgu ovozi jarangladi.


Dilrabo MUXTOROVA,

229-maktabning 9-«B» sinf o'quvchisi



## TOPISHMOQLAR

Tosh desam,  
Baqaga o'xshar,  
urmanglar.  
Baqadesam,  
Toshdan qattiq,  
o'rmalar.



Nokka o'xshar, yeb bo'lmas,  
Usiz uyga nur to'lmas.  
(lampochka)

Oyog'i bor o'n olti dona,  
Unga bir oy berilar xona.

(nimb kvdt)



Quvnoq, zukko, topqir bolajonlar, rassom akangiz Sur'at Salohiddinov chizgan rasmlardagi 10 ta farqni toping-chi!

Sahifani ZAMONBEKA tayyorladi




Kavsar TURDIYEVA

# «A LIFBE» DA NECHTA HARF BOR?

(Boshi o'tgan sonlarda)

## Jj



Turib qolganda yakka,  
J o'xshaydi ilgakka.  
Bor kuchini yiqqan u  
Va tuxumdan chiqqan u.  
Jajjigina mitti qush,  
Pi-pilab berar tovush.  
Juni sariq, momiqdir,  
Onajoni tovuqdir.  
O'zi yo'q edi kecha,  
Bugun ochildi...

Bu jajji kenja-botir,  
Panjada ishlayotir.  
Jimitdek uning bo'yi,  
Qo'lqopdir uning uyi.

Eng kichkina barmoqqa  
Ko'z tashlang...


Jirafa, bo'lma xafa!  
Jahlingni bos, jirafa!  
Ustingdan kulsa birov  
Janjal chiqarma darrov.  
Uzunliging rost axir,  
Shu bo'y senga mos axir.



J harfidan boshlanar,  
Qozonga yog' tashlanar.  
Non bilan yesang, mazza,  
Uning nomidir (jizza).

Tovuqlarga dondirman,  
Meni tuysang nondirman.  
Bo'yim ancha yuqori,  
Nomim...


Joylashganman ichingga,  
Kuch qo'shaman kuchingga.  
Tozalayman qoningni  
Va saqlayman joningni.  
Yurakka nafim tegar  
Tana a'zoman (jigar).



## Kk

Qo'l yozsang ikki tomon,  
K harfi bo'lar shu on.

Okean uning uyi  
Kattadir eni, bo'yi...



Nima aytig osmonda,  
Yong'ir yoqqan tomonda,  
Birdan porlasa quyosh,  
Asta ko'taradi bosh.  
Osmonga chiqdi, qarang  
Kamalak yettita rang.

Cho'ntaksiz va cho'ntakli,  
Yengil, yengsiz, etakli.  
Tikilar yoqa, bezak  
Tasma, bog'ich, pipirak.  
Topdingiz, budir...

Ku-ku-ku, ku-ku-ku  
O'rmonda sayrar...



Qarama-qarshi so'zlar


Men kichikman albatta,  
Bir kun bo'lamana katta.  
Mashq qilsam, o'ynasam to'p,  
Kam kuchim bo'ladi ko'p.



Go'yo yozgandek gilam,  
Yurtimga keldi ko'klam.  
Sizga aytgandek ertak,  
Novdadan chiqar kurtak.  
Meva yey desang har vaqt,  
Ko'klamda ekin ko'chat.

Yasagan uni kulol,  
Suv solishga ehtimol...

Dalada tinmay lik-lik  
Ovoz beradi (kaklik).



U dunyoni ko'rsatar,  
Ba'zan so'zsiz gap qotar.  
Yumilar, chaqnar, porlar,  
Imo-la seni chorlar...

Vatanidir dalalar  
Yer tagida bolalar...



(Davomi bor)



Sa'dulla HAKIM

## UMID

Talpinadi ona qo'lida  
Jajjigina murg'ak chaqaloq.  
Ko'kka cho'zib ikki qo'lini,  
Goh «inga»lar, goh solar quloq.

Aziz ona shirin orzu-la  
Ko'taradi boshiga uni.  
Umid bilan deydi: «Elsevar  
Yurt o'g'lona bo'lar bir kuni!»

## SO'Z

So'z – bu bog'da yetilgan hosil,  
Har kim olar keragin terib.  
Achchig'ini o'zi yer oqil  
Boshqalarga shirinin berib.

## BOLALIK

Bolalik,  
Ko'pkari.  
Esindan chiqmas  
Chollardan birining aytgan so'zlari:  
– Ot mingan har kishi chavandoz bo'lmas,  
Andi emas eshak minganning bari!

## MEHR

Behuda so'z aytib qilma malomat,  
Agar nuridiydang dard cheksa harchand.  
Ota soyasida sog'-u salomat,  
Ona mehri bilan sog'lomdir farzand!

## OQQUSH

Oqqushim, oppoq qushim,  
Parlari yumshoq qushim.  
Ham savlatli, ham mag'rur,  
Beg'ubor oppoq qushim.

Sen go'yoki bulutning,  
Yerga qo'ngan soyasi.  
Shoirlarning she'risan,  
Hofizlarning nolasi.

Shahnoza QODIROVA

## OQ TULPOR

Tog'-u qirlar gul-lolazor,  
Kamalakar jilosi bor.  
O't chaqnatib tuyog'idan  
Uchib kelar oppoq tulpor.

Lola kular unga qarab,  
Ko'zni olar nur yarqirab.  
Qanotida fasli bahor,  
Uchib kelar oppoq tulpor!

Ruhshona  
JAMOLIDDINOVA,  
3-sinf o'quvchisi



## TOSHKENTIM

Poytaxt shahrim – Toshkentim,  
Mustaqil yurt yulduzi.  
Minorlaring naqshinkor,  
Go'yoki o'ying yuzi.  
Hur tinchlikning qo'ynida,  
Elim saxovatpesha.  
Qutlug' yoshing muborak,  
Yashnayvergin hamisha.

Malika MO'MINOVA

Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi  
73-maktabning 4-sinf o'quvchilari

## AZIZ USTOZIM

Mehribonsiz bizlarga,  
Barcha o'g'il-qizlarga,  
Boysiz shirin so'zlarga,  
Birinchi o'qituvchim.

O'qib odobli bo'ldim,  
Dunyo sirlarin bildim,  
Shundan munavvar ko'nglim,  
Birinchi o'qituvchim.

Madina G'OFUROVA

# OT NEGA EGARLANADI?

*Bolalar, siz otlar haqida ko'p rivoyatlar, afsonalar eshitgansiz. Filmlarida ot ustidagi chavandozlarning harakatini ko'rib, havas qilganingiz aniq. Lekin o'sha chavandoz ot ustida bemalol o'tirishi uchun xizmat qiladigan egarning ahamiyati qanchalik katta ekanligini bilasizmi? Egarning qanday yasashini-chi?*

## «Katta bobo» bekati TO'G'RI GAPIRASIZMI?



Aziz bolajonlar! Bekatdagi bugungi suhbatimiz mavzusini to'g'ri gapirishga bag'ishlasak, nima deysiz? Qani, aytinch-chi, siz to'g'ri gapirasizmi, do'stlaringiz, otanangiz, ustozlaringiz savollariga burro javob berasizmi?

Yaqinda maktab yonidan o'tib ketayotganimda, bir guruh o'quvchilarning o'zaro suhbat qulog'imga chalindi. Odobdan bo'lmasa ham, biroz ularning so'ziga quloq soldim. Shu damda ularning o'zaro bahsini eshitib, negadir ranjigandek bo'ldim. Nazarimda, 4-5-sinf o'quvchilari bir-birlari bilan nimadir xususida tortishayotgandi. Bolalarning gaplari shunchalik chalkash ediki, nima xususida gap borayotganini anglab yetish mushkul bo'lib qolgandi.

Ustozlaringiz darslarda til qoidalari asosida gapirish lozimligini bot-bot aytishadi. Boz ustiga, to'g'ri gapirish borasidagi mashg'ulotlar sizga bir umrlik saboq bo'lishi kerak.

Har bir o'g'il-qiz o'z vaqtida tiliga e'tibor bermog'i lozim. Tilni doimo to'g'ri so'zlashga odatlantirmoq zarur. Agar bir bor uni qonun-qoidalarga amal qilmay gapirishga o'rgatib qo'ysangiz, umr bo'yi kulgiga qolib, do'stlaringiz hurmatini yo'qotishingiz hech gap emas.

Aziz o'g'il-qizlarim, so'zlarimga aslo beparvo bo'lmang. Chunki har narsaga yoshlikdan to'g'ri amal qilinsa, ayni muddao bo'ladi. Sizga buni aytishimning boisi shuki, o'zim ham sezmaganda tez gapiraman, ayrim paytlarda fikrlarim kimgadir tushunarsiz bo'lib qolishi mumkin. Shunda yoshlikda burro gapirishga odatlanmaganim uchun afsuslanib ketaman. Nachora, vaqtni ortga qaytarib bo'lmaydi. Shuning uchun, azizlarim, hozirdan boshlab to'g'ri gapirishga o'rganing. Bu sizni komil inson bo'lishingiz poydevori ekanligini unutmang. Zero, aniq va burro fikr bildirish bilimdonlik belgisidir.

Islom USMONOV

www.tongyulduzi.uz

Xo'jam otaning otasi taniqli egarsoz usta bo'lgan ekan. Xo'jam ota otasi Eshbo'ta bobodan meros bo'lib qolgan ot-egar jabdug'ini ko'z qorachig'idek asrab kelyaptilar. Saqlanayotgan ot-egar jabdug'i uch asr yuzini ko'rgan deyishadi. Bu jabdug' sariq misdan bezak berib ishlangan. Uning hech bir joyiga shikast yetmagani, bus- butunligini ko'rib, hayratingiz oshadi. Otaning aytishlaricha, bunday qadimiy buyumlar yana g'allaorollik Oston polvonning, Xayrulla va To'ychi polvonlarning xonadonida ham saqlanayotgan ekan. Qirq yildan beri otlarga egar, uzangi, no'xta, jagan, qum, zul, jovub kabi ot-ulov buyumlarini tayyorlab, chavandozlar hurmatiga sazovor bo'lib kelayotgan usta boboni respublikamizning ko'pgina joylaridan chavandozlar izlab kelishadi. Qadimda ota-bobolarimiz no'xta va jo'ganlarni asl charmdan tayyorlashganini ham, otga jabduq va qumdan egar bosishni-yu, ustiga zul yopilib, ayil bilan mustahkamlanishini Xo'jam bobo qoyillatadilar. Asl charmdan tayyorlangan ayil ustidan uloq- ko'pkari poygalarida ehtiyoti shart jundan

to'qilgan pushtan qo'llanilib kelinadi. Chevar tikuvchi onaxonlarimiz tomonidan jilo berib to'qilgan xurjunda tovlanib turgan quyosh, zangori osmon, yetti turdagi kamalak ranglari va naqshlar poygachi otlarga o'zgacha jilo berib turadi.

Yana ot minishda kishan, nag'al ham asqotadi. Kishanlangan ulov uzoqqa sero't yaylov izlab ketib qolmaydi. Shuning uchun ham xalqimizda «Otga solsang kishan, choy ichguncha ishon», degan ibora bor.

Ot-ulov jihozlarini asrashni ajdodlarimizdan o'rgangan bobolar ishini o'rganish sizning-da, burchingiz ekanligini aslo unutmang. Mohir usta bo'lishni, otlarga mehr qo'yishni siz-u bizga, rosti, an'analar o'rgatmoqda.

Biz Xo'jam otadek mohir ustalar elda e'zozlansin, ularning ezgu ishlari ham asrlar yuzini ko'rsin, deb orzu qildik.

**Abdulla SAIDOV,**  
Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi  
78-maktabning oliy toifali o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi


*Ot egari archa, yong'oq, tut kabi daraxtlardan yasaladi.*

### SPORT SABOQNOMASI BIRINCHI CHEMPIONAT

Misrda tarqalgan shashka o'yini XVI asrda Ovrupaga kirib kelgan.

Shashka tarixida birinchi chempionat 1847-yilda bo'lib o'tgan. Unda Shotlandiya davlati shashkachilari g'oliblikni qo'lga kiritishgan.

DILAFRO'Z tayyorladi



# MUXLISMAN

Yilning eng zo'r hakami  
Rayshan Ermatov bo'ldi.  
Bu quvonchli xabardan,  
Qalblar quvonchga to'ldi.


Kurashchimiz Taymazov,  
Bor hunarin ishlatdi.  
Shohsupaga chiqish-chun,  
Anchayin kuch ishlatdi.

Barcha sportchilarga,  
Omad tilab qolaman.  
Nasib bo'lsa, ularning  
Safidan joy olaman.

Futbolchimiz Jeparov,  
Bu yil eng zo'r o'yinchi.  
Ishqibozlar uchun bu –  
Ajoyib bir suyunchi.

Demak, yoshlarga katta  
E'tibor berilyapti.  
Xorijdan tajribali,  
Murabbiylar kelyapti.

**Avazbek TURSUNOV,**  
Farg'ona viloyati,  
Farg'ona tumanidagi  
51-maktabning 8-«A» sinf  
o'quvchisi



Sahifani G'OLIBA tayyorladi

Murabbiylardan birining: «Kerakli nasihatlarini o'z vaqtida bolalarimizga yetkazib turaylik!» degan gapi menga juda ma'qul bo'ldi. Bunday gaplarni bitta minbardan emas, bolalarga yetib boradigan hamma imkoniyatlar orqali ularga muntazam yetkazish kerak! Biz sevib o'qiydigan gazetaning «Oz-oz o'rganib, dono bo'lur», «Katta bobo bekati» ruknlari orqali yetkazilayotgan o'g'itlar, pand-nasihatlar, ibratli rivoyatlar o'zimizga ham ma'qul bo'lmoqda.

M.IBODOV,  
Surxondaryo

## NOMUS

### NIMADAN YARALADI?

So'radilar:

– Nomus bola bilan tug'iladimi?

Dono javob qildi:

– Yo'q, nomus boladan keyin shakllanadi. U ko'ngilda hayot guli kabi sekin-asta paydo bo'ladi.

– Bu qanday sodir bo'ladi?

– Bu bolani avvalo, mehnatga o'rgatish, musiqa, badantarbiya mashqlari, ezgu ishlar orqali va ana shu mashg'ulotlarning yetariligidan dunyoga keladi.

\*\*\*

– Bolaga ilk tarbiyani kim berishi kerak?

– Albatta, ona. Chunki millatning kelajagi onalar qo'lidadir.

So'radilar:

– Bolaga sajda qilayotganlarga nima deysiz?

Dono javob berdi:

– Farzandi

talab qilgan, ayt-

ganini olib ber-

gan ota-ona ikki

karra yutqizadi.

Ulg'ayganda,

ular jonlaringizni

oladi.



\*\*\*

– Bolaga qachon va qaysi paytlarda tarbiya berish kerak?

– Har daqiqada.

\*\*\*

Dono dedi:

– Bola juda sezgir. Siz esa uni hech narsaga aqli yetmaydi, tushunmaydi, deb o'ylab xato qilasiz. So'zingiz ohangidagi ozgina o'zgarishni ham u darhol ilg'ab oladi.

– Nega shunday?

– Uning qalbi pokiza. Pokiza qalbdan sezish kuchli bo'ladi.

SHAHNOZA tayyorladi

### FOTOSURATLAR TANLOVIGA



– Malikalarga o'xshaymanmi? – deydi Madina MAMATKARIMOVA.

### 2000 DAN ORTIQ PAND-NASIHAATNI BILADIGAN OTAXON

Bu otaxonning: «Toshkentga kelsam, bir yoshga yosharib ketaman», degan so'zlari bizda yaxshi taassurot qoldirdi. Ota har oyda ikki-uch marotaba tahririyatimizga kelib, mehmon bo'lib ketadilar. Yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar haqida to'lib-toshib gapiradilar. So'zga chechan emaslarini, gaplari hech ado bo'lmaydi.

Quyida u kishining siz bolalar uchun bitgan pand-u nasihatlarini e'tiboringizga havola etamiz.

– Men Payg'ambarimiz (s.a.v)dan tortib ulug' yozuvchilarining 2000 dan ortiq pand-u nasihatlarini, hikmatli so'zlarini o'qib o'rganib, xalqimiz o'rtasida katta davralarda aytib yuraman.

1. So'zlashuv, so'zlarga e'tibor berish;
2. G'ayrat bilan ilm o'rganish;
3. Har qanday vaqtda hunar o'rganish;
4. Aql-odob o'rganish va qo'llash;
5. Ota-onalarni qadrini bilish;
6. Ustozlarni, olimlarni qadrlash;
7. Aytgan va'dani bajarish;
8. Or-u nomusni saqlash;
9. Vatanni asrash;
10. Qarindosh, do'stlar bilan ahil bo'lish;
11. Doimo kamtar bo'lish;
12. Har ishni adolatli qilish.

SAIDIKROM ota,

Toshkent viloyati, Bo'ka tumani



### 50 METRLI OQ OT

Londonda o'tadigan navbatdagi Olimpiada sharafiga 2012-yilda Angliya janubidagi Kent grafligining Ebeflit tumanida balandligi 50 metr bo'lgan oq ot haykali o'rnatiladi. Muallifi rassom Mark Uollingyer bo'lgan loyihani amalga oshirishga 2 mln. funtsterling (2,95 mln. AQSH dollari) ajratildi.



### 2295 YOSHLI DARAXT

Dunyoda eng uzoq yashayotgan ban'yan daraxtlaridan biri Shir Lankaning Anuradxapur shahrida hali ham o'sib turibdi. Ban'yan daraxtining yoshini 2295 yil deb faraz qilishmoqda.

### QORONG'IDA O'QILADIGAN KITOB

Amerika Qo'shma Shtatlarining noshirlari kichkintoylar uchun antiqa kitoblarni chop eta boshladilar.

Kaliforniya shtatida joylashgan «Random Xaus» nashriyoti qorong'ida ham

o'qish mumkin bo'lgan erak kitoblarni nashr qildi.

«Qaysar o'rdakcha» deb nomlangan dastlabki kitob shu qadar ommalashib ketdiki, hatto uni birozdan so'ng kitob do'konlaridan axtarib topib bo'lmadi.



O'qituvchi Alidan mushuksimonlar oilasiga mansub 6 ta hayvonni sanab berishini so'radi.

– Ota mushuk, ona mushuk va to'rtta mushukchalar...

\*\*\*


Nabirasining bilimni sinab ko'rish maqsadida bobosi Feruzni savolga tutdi:

– Ikki karra ikki necha bo'ladi?

– To'rt bo'ladi, – darrov javob qaytardi nabira.

– Barakalla, mana senga to'rtta shokolad.

Eh, attang, ikki karra ikki to'rt emas, o'n bo'ladi, desam bo'larkan-da, ko'nglidan o'tkazdi Feruz.



#### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

#### BOSH MUHARRIR: To'liqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:  
Zuhra MUHSIMOVA  
Navbatchi:  
Sayyora JO'RAYEVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruz JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

Manziliimiz:  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks: (99871) 244-38-10

Rassom:  
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092

Adadi - 67773  
Buyurtma N: J 6952